

KOREYS ADIBASI YAN KVI JANING BADIY OBRAZ YARATISH MAHORATI

Hidoyatova Aziza
TDSHU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan adiba hikoyalari uchun tanlagan obrazlarning o‘ziga xos xususiyati, ularning to‘qima emas, balki muallif atrofidagi oddiy insonlar ekanligi yoritilgan. Muallifning hikoya uchun tanlab olgan obrazlari – beva ayollar, ajoyib tabiatli insonlar, yetim bolalar bilan asar tagmatniga berkitilgan ota obrazi koreys xalqining oila haqidagi muqaddas qadriyatlarini yodga soladi.

Kalit so‘zlar: qo‘ng‘iroq qush, sayohatchi sichqon, beva ayollar, ajoyib tabiatli insonlar, yetim bolalar, ota

Yan Kvi Ja qalamiga mansub hikoyalar uchun tanlagan obrazlar o‘zining hayotiyliigi hamda badiiy mantiqqa asoslanganligi bilan ajralib turadi. Zero, “Yozuvchi qay darajada mohir bo‘lmasin – asar uchun obrazlarni jalb qilishda juda ham erkin harakat qila olmaydi. San’atkor bu ishda doim ikkita mantiqqa asoslanadi: ulardan biri – hayot mantig‘i, ikkinchisi muayyan asarda kuzatiladigan badiiy mantiqdir”¹. Maishiy hayot fonida tasvirlangan har bir obrazda muallifning badiiy niyati aks etadi: “Badiiy obrazni ijodkorning badiiy asardagi ko‘lankasi ham deyish mumkin”².

Adibaning “Qo‘ng‘iroq qush” hikoyasida syujetni harakatga keltiruvchi badiiy obrazlarni uch toifaga bo‘lish mumkin: birinchisi, roviyning hikoya voqealarini bayon etishi; ikkinchisi, eri qamoqda o‘tirgan ayolning osuda hayoti va Kvangu qo‘zg‘oloni sabab ostin-ustun bo‘lgan hayoti; uchinchisi, bog‘ sayriga tashrif buyurgan yetim bolalar. Bir qarashda hikoya boshdan-oyoq bog‘ sayri, hayvonot olamiga tashrif buyurgan insonlarning bir kunlik taassurotiga o‘xshaydi, ammo, bayonchilikdan yiroq. Chuqur ijtimoiy fikrlarni hikoya zahiriga singdirib yuborgan adiba har bir jonzot xususiyatiga ko‘ra, insonlar toifasini ko‘rsatadi. Shuningdek, bog‘ning ko‘rinishi doira

¹ Кўшхонов М. Сайланма. 2 жилдлик. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 279-280.

² Ҳамраев К. Ҳикоя композицияси. Монография. – Тошкент, 2020. – Б. 53.



shaklida bo'lib, kurrai zaminning aylanishini yodga soladi. Hikoya umuminsoniy muammolarga ajralgan, tor milliy qobiqqa o'ralgan emas, balki ular asosida jamiki insoniyatga ibrat bo'ladigan axloq, ona yerga, insonga mehr, qadr-qimmat g'oyalari o'z ifodasini topgan.

“Sayohatchi sichqon” hikoyasi voqealari esa tog' va o'rmon hududiga ko'chiriladi. Hikoyada an'anaviy tog' obrazi hamda yangi o'rmon obrazi mavhum makon sifatida gavdalanadi. Hikoyaga tanlangan qahramon obrazi orqali muallif ichki urushlarga aralashib qolgan, shu sababli o'tmishini berkitish, oila a'zolariga zarar yetkazmaslik maqsadida ehtiyotkor, shu bilan birga kuchli qo'rquv, bosim ostidagi yoshlarni tasvirlaydi. “Sayohatchi sichqon” hikoyasida voqealarning mavhum makonlarga ko'chirilishi ham bejizga emas. “U odam aslida Seuldagi qaysidir kompaniyaga qatnab ishlaydi, faqat maosh bilan kun kechiradi, hatto, universitetlarni tamomlagan, tashqi ko'rinishi ham binoyidek. Anavi Nam Kungvon³chalik bo'lmasda”⁴. Keltirilgan parchada bosh qahramonning zohiriga xos xususiyatlar ochib berilgan.

Adabiyot va davr doimo hamnafas qadam tashlagan. Har bir yozuvchi o'zining asarlariga qahramon tanlar ekan, unda yozuvchi o'zini, yohud o'zining tasavvuridagi qahramonni ko'rsatishga, o'z qahramonlari orqali kimdir o'zining hayotini tasvirlashga, kimdir hayotga bo'lgan munosabatini ochib berishga, yana kimdir qahramonni ideallashtirishga harakat qiladi. Yan Kvi Ja o'z hikoyasi uchun tanlagan obrazlar mazkur davrda turli sabablarga ko'ra beva qolgan ayollardir.

“Badiiy janrda ozmi-ko'pmi tafsilot bilan tasvir etilgan personaj obraz yoki xarakter deb ataladi”. Xarakter (obraz) – insonning tipiklashtirilgan va individuallashtirilgan tasviri...Xarakterda yozuvchining kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yaqqol ko'rinadi. Xarakter muallif estetik idealini tashuvchidir”⁵.

Yan Kvi Janing “Qo'ng'iroq qush” hikoyasida oddiy, sodda, ishonuvchan ayollar tipi berilgan. Asarda muallif ayol qalbining qanchalik chuqurligi, bu chuqurlik goh to'lib, goh bo'shab qolishini tasvirlaydi. Har qanday badiiy asardan hayot haqiqati ufurub turishi lozim. U hayotga yaqin bo'lmasa, beiz o'tib ketaveradi. Bu hikoyada

³ Janubiy Koreyalik mashhur aktyor

⁴ 양귀자, 원미동 사람들, – 서울, 2012, – 131.쪽.

⁵ Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент. О'qituvchi. 2005. – Б 103.



hayot haqiqati to'liq tajassum topgan. Muallif nasrning eng kichik shakli hikoyada butun boshli badiiy dunyoni sig'dira oldi.

“Qo'ng'iroq qush” hikoyasida voqealar ayol nuqtai nazari orqali yoritiladi. Hikoyada ayollarning turmush chorrahasida duch kelgan muammolari, bu muammolardan chiqish yo'llarida ularning oila boquvchisiga aylanib qolgani bog' sayri fonida tasvirlangan. Bog' hikoyada asosiy detal vazifasini o'taydi. Chunki bog' sirli va mavhum joy. Bog' – bosh qahramonlar harakatlanadigan muhitni ko'rsatish vositadir. Adibaning maqsadi esa bog'aro sayrga chiqqan ayollarning muammolari orqali davr muhitida erkakdan ham ko'proq ishlashga majbur ayollarning xarakterini ochib berishga qaratilgan. Bir qarashda kishini o'ziga jalb qiluvchi bog' qo'ynida nimalar borligi mavhum bo'lgani kabi hayotning turli dovonlarida ayol kishi duch keladigan sinovlar ham mavhumdir.

Yan Kvi Jani ham o'ylantirayotgan muammo bu – davr muhitidan kelib chiqib beva qolayotgan ayollar, ayollarning turmush chorrahasida to'g'ri yo'l tanlay olish huquqi, shu bilan birga erkaklar ovozinig yo'qolib borayotgani edi. Qushlarning sayrashlari – insonning ong tafakkuridan chiqayotgan ovoziga qiyoslanishi bejizga emas. Tabiat qo'ynida erkin sayrab yurgan qushlarning qafasga solib qo'yilishi, erkaklarning xalq, vatan haqidagi haqiqatni aytishlariga monelik ko'rsatish uchun temir panjara ortiga qamab qo'yilishi bilan qiyoslanadi.

Hikoya bog' sayri oldidan kirish joyidagi oynali bino tasviridan boshlanadi. Boqqa kirish joyida berilgan ota-onasini yo'qotib qo'ygan bolalarni vaqtincha ushlab turuvchi joy – ayolga yetim bolalarning holatini oldindan ko'rsatadi. Chunki bu yerdagi manzaradan so'ng asar bosh personaji o'z farzandining qo'lidan mahkam tutadi, undan ko'zini uzmaydi.

“Kyongju tengdosh bo'lishiga qaramasdan ehtiyotkor bo'lib, odamlar ko'p yig'iladigan joyda har doim tortinib turar edi. Qachonlardir o'z onasidan ma'lum bir masofada ajrab qolmaslik uchun u tez-tez orqasiga qayta-qayta qarab qo'yardi”⁶.

Muallif ayrim hikoyalarida oiladagi qiz farzandlarning ayanchli holati, otalarining ularga nisbatan zo'ravonlik harakatlarini tasvirlagan bo'lsa, ayrim hikoyalarida turli sabablarga ko'ra, yetim qolayotgan bolalar obrazini chizadi. Bog' sayri tasvirida otasidan erta ayrilgan bolalarning atrofdagi boshqa odamlardan hadiksirashi *Kyongju*

⁶양귀자, 원미동 사람들, – 서울, 2012, – 199.쪽.



obrazida o'zining yorqin ifodasini topgan. Avval otasidan ajragan qizaloq, hatto, sayr chog'ida o'zini bolalardek erkin tita olmaydi, har lahzada onasini ham yo'qotib qo'yishdan qo'rqadi. Ichki urushlar, mamlakatdagi notinch vaziyat bolalarning beg'ubor damlarifa chang soldi.

Yan Kvi Ja har bir hikoyasida harbiy boshqaruv davrida ro'y bergan tinchlik namoyishlarining kutilmaganda to'qnashuvlarga aylanib ketish sabablari, namoyish ishtirokchilarining ayrimlari qamoqqa olingani, ayrimlari esa ayovsiz kaltaklanib, nogiron bo'lib qolganini ko'rsatish orqali tirik bevaga aylangan ayollarning qismatini tasvirlaydi.

Muallifning "Olis va go'zal mahalla" hikoyasi yakunidagi mana bu matnda "Vonmidonglik odamlar" hiloyalar to'plamiga kiritilgan qator obrazlar qayta sanab o'tiladi: *"Qari onasi, kichik qizi va homilador rafiqasini yetaklagan u (uy boshlig'i) "Uzoq va go'zal mahalla", ya'ni, Vonmidong aholisiga aylandi. Yuk mashinasi kelib to'xtagach, birinchi bo'lib Kangnam ko'chmas mulk agentligi xodimi boshini chiqarib qaradi, keyin qayerdandir bir nechata bolalar chiqib, yuk mashinasini o'rab oldilar. Sartaroshxonadagi ayol ximiya qilishni to'xtatib, bir zumga eshikni ochib qaradi. Gulqog'oz dokonidagi yigit ham gulqog'ozni almashtirishga chiqib, yuk mashinasining to'xtaganini ko'rdi. Ko'p qavatli uylarning ikkinchi qavatidagi derazadan ko'ringan ko'zlari kirtaygan bir yigit ham yuk mashinasidan yuklarni tushirishlarini kuzatib turardi"*⁷

Yan Kvi Ja beva ayol, qizaloq, yetim qolgan bolalar, ichki urushlar sabab hayot o'zanini yo'qotib qo'ygan yoshlar, bo'ydoq yigitlar bilan birga hikoyalarining tagmatnida ota obrazini chizadi. Qator hikoyalarida ota obrazi oilaga vafodor, halol, insonparvar tarzida namoyon bo'ladi. An'anaviy qadriyatlarga amal qiluvchi, uni himoya qiluvchi bu otadir.

Yozuvchi hikoyalarida ota iyun qo'zg'oloni ishtirokchisi, ziyoli inson. Jumladan, "Olis va go'zal mahalla" hikoya qahramoni otasi buviga ko'rsatgan ehtiromi barcha oila a'zolariga namuna bo'ladi. "Vonmidonglik shoir" hikoyasida ota obrazi "Olis va go'zal mahalla" hikoyasidagi ota obraziga qarama-qarshi qo'yiladi. Qizaloq tilidan qilingan hikoyaga ko'ra, ota oilada o'z mas'uliyatini unutgan, uzzu-kun ichish uchun bahona axtaradi. Adiba otaning tubanligini ko'rsatish uchun uning axlat tashishi,

⁷양귀자, 원미동 사람들, – 서울, 2012, – 36.쪽.



aniqrog'i, axlat titishi, ichkilik oqibatida ustidan faqat axlat hidi anqib turishini qizaloq nigohida ishonchli tasvirlaydi.

Muallifning "Xangeryong" hikoyasida ham shunga o'xshash ota obrazi uchraydi: *"Bir necha bor bug'da pishirilgan non do'koni kassasidan yashirincha pul olayotganida otasi (qizini) tutib olib, o'lar darajada kaltaklayotganini ko'rganman. Otasi Injadan tashqari, turmushga chiqmagan katta opasini ham, onasini ham kaltaklardi. Shuning uchun uning uyi oldidan o'tayotganimda, otasining o'pkasi to'lib baqirayotganini eshitib qoldim. Inja qo'shiqchi bo'lish orzusida, tunda qochib ketganida, otasi allaqachon bu dunyoni tark etgan edi. Agar otasi hayot bo'lganida, Inja ham yosh boshi bilan tunda uydan qochishni xayoliga ham keltirmagan bo'lardi"*⁸.

"Vonmidonglik shoir" hamda "Xangeryong" hikoyasida ota zo'ravonligiga uchragan qizlar mustaqil, ozod hayotni shahardan axtarishadi. Adiba esa ayollarning axloqsizlik ko'chasiga kirib ketishida erkaklar, ayniqsa, otalar obrazini real chizishga muvaffaq bo'ladi. To'g'ri, hikoyada ota obrazlari alohida ajratib ko'rsatilmagan, yoki ular ishtirok etgan lavhalar ham ko'p emas. Har ikki hikoyada ayollar obrazi yetakchilik qilsa-da, asar tagmatnida oila boshlig'i – otaning qizlar tarbiyasidagi salbiy illatlari, qizlar ruhiyatiga ta'siri anglashiladi.

Ota obrazi – koreys xalqi uchun azaliy qadriyat – oila boshlig'i ma'nosiga ega. Oilada tartibni saqlovchi ota bir hikoyada o'lim bilan yuzlashsa? Ikkinchi hikoyada u o'zligini yo'qotgan millat boshchisi, boshqa bir hikoyada esa oila, jamiyatda barcha narsalarning izdan chiqib ketishiga ta'sir ko'rsatgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ota obrazi orqali adiba mamlakatdagi tang ahvolni ko'rsatadi, xalq boshqaruvchisining inqirozi, vatanining tanazzul holatini badiiy ifoda etadi.

Hikoyalar tahlili shuni ko'rsatadi-ki, adiba har bir hikoyasu uchun tanlab olingan qahramonlarining xatti-harakatlari, ichki olami, qarashlari, faoiyatini tabiat manzaralari bilan uyg'un holda tasvirladi. Yozuvchi inson hayotining bir kunini ochib berish, turli toifadagi ayollarning ruhiyatini yoritish, jamiyatda yetim bolalar sonining ortib borishi sabablarini ko'rsatishda mumtoz davrga xos an'anaviy bog' obrazidan juda ham o'rinli foydalangan. Otalar obrazini ochishda muallif to'rburchak – fizik shakldan, soat detalidan, qo'ng'iroq qushi obrazidan, yetim bolalar holatini ochib berishda – shisha idishlar, ichki urushlarga aralashib qolgan yoshlar obrazini xhizishda hid detalidan, tog'

⁸ 양귀자, 원미동 사람들, – 서울, 2012, – 340.쪽.



va g'or kabi mavhum makonlarni o'z o'rnida qo'llay olishfa mubaffaq bo'ldi. Odatiy, kundalik turmush ikir-chikirlari tasviri tabiat manzaralari bilan birga bir butunlikni hosil qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент. О'qituvchi. 2005.
2. Қўшжонов М. Сайланма. 2 жилдлик. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.
3. Ҳамраев К. Ҳикоя композицияси. Монография. – Тошкент, 2020.
4. 양귀자, 원미동 사람들, – 서울, 2012.